TA'LIM JARAYONIDA OLIMA AYOLLARNING GENDER TENGLIGI

Jamoliddinova Nozimaxon Nodirbek qizi
Andijon viloyati Baliqchi tumani
39- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola ilm-fan taraqqiyotida ayol olimlarning o'rni va roli haqida so'z yuritadi. Maqolada ayollarni ilm-fan sohasiga jalb qilishda yuzaga keladigan ijtimoiy va madaniy to'siqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ayol olimlarning ilmiy yutuqlari va ularning jamiyatdagi o'rni, ayniqsa STEM sohalaridagi muvaffaqiyatlari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqola ilm-fan sohasidagi gender tengligi va ayollarga qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini oshirish zarurligini ko'rsatadi.*

Maqolamizda asosiy maqsad – ayol-olimlarning ilm-fan va texnologiya rivojiga qo'shgan hissasi, ularning ijtimoiy rolini keng yoritish va ilm-fan sohasida ularga qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Kalit so'zlar: *Ilm-fan, ayol olimlar, gender tengligi, ayollarning ilmiy kashfiyotlari, STEM, ijtimoiy to'siqlar, ilm-fan taraqqiyoti, ayollarning roli, ma'naviy rivojlanish, ta'lim tizimi.*

Kirish

Ayollarning oila va jamiyatdagi roli, xususan, farzand tarbiyasi va ijtimoiylashuvidagi ahamiyati mutafakkirlar tomonidan e'tirof etilgan.

Abu Rayhon Beruniy o'z qarashlarida oila tinchligi bevosita oqila, aqlli, farosatli, tarbiyali ayollar qo'lida ekanligiga alohida ahamiyat qaratgan. Ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy: "Qizlar bilim olishga hammadan ko'proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar", deya ta'kidlaydi.

Buyuk ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat: "Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim", deb yozgan edi. Biz Uchinchi Renessans poydevorini qurish uchun jamiyatda yangi ma'naviy makon yaratish haqida gapirar ekanmiz va bu ishlarni ota-onalar, ustozlar ma'naviyati bilan uzviy amalga oshirishimiz zarur. Bugun biz ochiq jamiyatda yashayapmiz. Bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanib, ilg'or g'oyalarni o'zlashtirishimiz kerak. Lekin, milliy qiyofamizga putur yetkazadigan illatlardan ehtiyot bo'lishimiz, o'zligimizni yo'qotmasligimiz shart" [2].

Bugun mamlakatimiz olima-ayollar, xotin-qizlarimizning ishtiroki ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy va gumanitar axborot texnologiyalari, kimyo, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi kabi sohalar rivojida salmoqli o'rin tutadi. O'zbekistonda oxirgi yillarda gender tenglik bo'yicha bir qator qaror va farmonlar xotin-qizlarimizning faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun barcha sharoitlar yaratishga qaratilgan va katta ahamiyat berilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat

bo‘lmog‘i zarur”, deb ta’kidlab o‘tgan [1]. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj bo‘lgan xotin-qizlarimizni bugun faol qilish va ularni o‘qitib, kasb-hunarli, muammolarini o‘zlari yecha oladigan qilmog‘imiz va ijtimoiy xodim sifatida bu bizning ustuvor maqsadimiz deb ta’kidlaganlar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahnamoligida ayollarning, qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash, salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishga alohida e’tibor berilmoqda. Ilm-fan sohasida izlanish olib borayotgan olima-ayollar, qizlar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanib, ularning ilmiy-tadqiqot va izlanishlar olib borishi uchun sharoitlar yaratilganligi, innovatsion ishlanmalarini hayotga tatbiq etishda ko‘maklashish borasida zarur chora-tadbirlar ko‘rilmoqda [1].

Asosiy qism

Mamlakatimizda bugungi kunda jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni ta’minlash katta e’tibor qaratilmoqda. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash, muhofaza qilish, ularga munosib mehnat va turmush sharoitini yaratish, intellektual salohiyatini oshirish, jamiyatning ijtimoiy hayoti va davlat qurilishidagi ishtirokini yuksaltirish, tashkilotchilik, tadbirkorlik qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganini ko ‘rishimiz mumkin.

Ilm-fan taraqqiyoti insoniyatning global rivojlanishining ajralmas qismidir. Tarixda ayol olimlarning ilmiy kashfiyotlari ko‘p hollarda e'tibordan chetda qolgan yoki ko‘pincha erkak hamkasblariga tegishli deb hisoblangan. Ammo, vaqt o‘tishi bilan, ayol olimalar o‘zlarini ilmiy faoliyatda tasdiqlay boshladilar va bugungi kunda ular ilm-fan sohasining ajralmas qismiga aylandilar.

Ilm-fanda ayollar o‘zlarini tasdiqlashda nafaqat ijtimoiy to‘siqlarni, balki madaniy va iqtisodiy muammolarni ham yengib o‘tishdi. Ko‘plab tarixiy shaxslar, masalan, Marie Curie, Ada Lovelace, Rosalind Franklin, va boshqa ayol olimlar, ilm-fan tarixida ulkan iz qoldirib, hozirgi zamon ilm-fanining shakllanishiga katta ta'sir ko‘rsatgan. Biroq, ularning ilmiy yutuqlari ko‘p hollarda kam baholangan yoki umuman e'tibordan chetda qolgan.

Bugungi kunda ilm-fan va texnologiya sohalarida ayollarning roli tobora ortib bormoqda. STEM (Science, Technology, Engineering, and Mathematics) sohalarida ayollar ishtirokini oshirish uchun dunyo bo‘ylab bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ushbu sohalarda ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularni ilm-fan va texnologiya sohasida yanada faolroq ishtirok etishga rag‘batlantirish jamiyatning ilmiy va texnologik taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shadi. Biroq, hozirgi kunda ham ilm-fan sohasida ayollarga qarshi mavjud bo‘lgan gender stereotiplari, madaniy to‘siqlar va iqtisodiy cheklovlar mavjud.

Ayollarni ilm-fan sohasida qo‘llab-quvvatlash va ularning ilmiy faoliyatini rivojlantirish nafaqat gender tengligini ta'minlash, balki ilmiy taraqqiyotning samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, ilm-fanda ayollarning o‘rni va ularning ilmiy faoliyatdagi roli juda muhimdir. Tadqiqotimizda biz ayollarning ilm-fandagi

o‘rni, ular duch keladigan ijtimoiy va madaniy to‘siqlarni, shuningdek, ilm-fanda ayollarga yordam berish va gender tengligini ta'minlash yo‘llarini o‘rganamiz.

STEM (Science, Technology, Engineering, and Mathematics) ning ahamiyati shundaki, u ilm-fandagi gender tengligi masalalariga alohida e'tibor qaratib, ayollarning ilmiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini oshirish va ilmiy sohalarda ularga yaratishga zarur imkoniyatlar haqida muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Shuningdek, ushbu maqola ilm-fan sohasida ayollarning roli haqida fikr yuritishda yangi yondashuvlarni o‘rganish va ilgari surish maqsadida amalga oshirilgan.

Tarixga nazar soladigan bo‘sak, olima ayollarning jahon ilm-fani rivojidagi o‘rni muhim va ahamiyatlidir. Tarixdagi bo‘lgan to‘siqlar va jamiyatdagi gender notengliklarga qaramasdan ko‘pgina ayollar bir necha sohalarda misli ko‘rilmagan yutuqlarga erisha olganlar. Ularning ilmiy izlanishlari va innovatsion g‘oyalari ilm-fan rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsata olgan. Jumladan, Mariya Sklodovskaya u hattoki ikki karra Nobel mukofotiga ham sazovor bo‘lgan. Rozalind Franklin kimyogar va rentgenolog. Biz bu ro‘yxatni o‘zbek olima ayollari ilm-fandagi hissalari bilan ham davom ettirish mumkin. Sobira Xoldorova Zulfiya Umidova, Dilbar Abdurahmonova , Zarifa Saidnosirovalarni misol qilsak arziydi.

Tamara O‘ktamovna, Flora Ilyasovna, Mashxura Egamovna va yana ko ‘plab misollar keltirish mumkin. Bu olima-ayollar O‘zbekistonimizning faxri bo‘lgan ilm-fan yulduzlaridir.

Bugungi kunda Dilfuza Egamberdiyeva, Barno Sultonova, Nilufar Mamadaliyeva, Muhayyo Rasulova YUNESKOning “Lo real” - fandagi ayollar uchun stipendiyasi g‘oliblari bo‘lganligi, Dilnoza Duturayeva, Aziza Shonazarova kabi yosh olimalarimiz nufuzli xorijiy universitetlarda faoliyat olib borayotganligi bizlarga iftixor tuyg‘ularini beradi. Dilnoza Duturayeva tarixchi-sharqshunos, ilmiy izlanuvchi, turli madaniyat hamda tillarga chanqoq sayohatchi. [6. https://ziyouz.com/].

Axmadov Aning "Ayol olimlar va ularning ilm-fandagi roli" asarida ayol olimlarning ijtimoiy va ilmiy jihatdan qanday yuksalishini va ularning ilm-fan sohasidagi roli oshish masalalarini yoritib bergan.Shuni ta'kidlash kerakki, ilm-fanda ayollarni qo‘llab-quvvatlash va ular uchun teng imkoniyatlar yaratish jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi deb ta’kidlagan. [3, 45-68-b.].

Ayol olimlarning ilmiy faoliyat sohasida faol ishtirok etishga rag‘batlantirish, ularni ilmiy hamjamiyatga jalb qilishning zarur. [5, 120-134-b.].

Ayollarga ilm-fan sohasida yordam berishning ijtimoiy va madaniy jihatlari ayollarni ilm-fanga jalb qilish uchun ta’lim tizimi, ilmiy tadqiqotlar institutlari va ijtimoiy tashabbuslar muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, bu sohadagi ayol olimlarga ko‘rsatilayotgan yordamning jamiyatdagi ijtimoiy tenglikka qanday ta'sir ko‘rsatishini o‘rganish zarur.

Xulosa

Ilm-fan taraqqiyotida ayol olimlarning o‘rni har doim muhim bo‘lib kelgan, ammo tarix davomida ular ko‘pincha e'tibordan chetda qolgan. Maqolamizda ayol olimalarning ilm-fanda erishgan yutuqlarini, ularning ijtimoiy va madaniy muhitga ta’sirini, shuningdek, ilmiy faoliyatga qo‘shgan hissasini ko‘rsatishga harakat qildik. Shuni alohida ta’kidlash

joizki, ayollar ilm-fanda muvaffaqiyatga erishishida nafaqat ilmiy bilimlarni rivojlantirishga, balki jamiyatni ilgari surishga ham katta hissa qo‘shgan.

Ilm-fanda ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularning yutuqlarini tan olish va ilmiy faoliyatda ko‘proq ishtirok etishlariga imkon yaratish jamiyatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayollarni ilm-fan sohasida rag‘batlantirish va ta'lim tizimida teng imkoniyatlar yaratish, nafaqat gender tengligini ta'minlash, balki jamiyatning umumiy ilmiy va texnologik taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. raisligida o‘tkazilgan Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017-yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishidagi asosiy ma’lumotlar. 2017-yil 14-yanvar.

2. Mirziyoyev Sh.M. raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi asosiy ma’lumotlar. 2022-yil 2-mart.

3.Axmadov A. Ayol olimlar va ularning ilm-fandagi roli. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

4.Nazarov A. Ayollar ilm-fanda: Mavjud muammolar va yechimlar. Tashkent: Ilmiy nashr, 2021.

5.Rahmatova M. Ilm-fan va jamiyatdagi ayolning o‘rni. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi, 2017.

6. https://ziyouz.com/